
SHAHAR HOKIMLIGIDA 2024-YILNING 1-CHORAGI DAVOMIDA JISMONIY VA YURIDIK SHAXSLARNING MUROJAATLARI BILAN ISHLASH NATIJALARI YUZASIDAN XISOBOT

Shahar hokimligiga 2024-yilning I-choragi davomida barcha manbalar orqali jismoniy va yuridik shaxslar vakillaridan jami **137 ta** (127ta) murojatlar, shundan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual qabulxonasi **59 ta** (51ta), Xalq qabulxonasi orqali 51 ta (30 ta), Bosh Prokuratura ishonch telefoni orqali **6 ta** (11 ta) va shahar hokimligiga to'g'ridan-to'g'ri **21 ta** (33 ta) yozma murojaatlar kelib tushgan. (Bu ko'rsatgich 2023 yilning shu davrida 127 tani tashkil etib, 10 taga yoki 7,3% oshgan). Mazkur murojaatlarning 71 tasi (51,8%) ijobiy hal etilgan, 66ta (48,2%) murojaatga qonuniy tushuntirish berilgan.

Murojaatlar sohalar kesimida tahlil etilganda, Moddiy yordam ajratish masalasida **37 ta** (27%), Boshlang'ich to'lovsiz uy-joy olish masalasida **30 ta** (21,9%), Ichki yo'llarni ta'mirlash va asfaltlashtirish masalasida **24 ta** (17,5%), Tungi yoritish chiroqlari o'rnatib berish masalasida **8 ta** (5,8%), Hududlarni obodonlashtirish va Tadbirkorlikni rivojlantirish masalalarida **7 tadan** (5,1%), Xonadonni ta'mirlash masalasida **3 ta** (2,2%), Noqonuniy qurilmalarni bartaraf etish, Yer maydonlarni sug'orish va Raxbarlar faoliyati masalalarida **2 tadan** (1,4%), Daftarga (*Temir, Ayollar, Yoshlar*) kiritish, Qishloq ho'jaligi, Ish bilan ta'minlash masalalarida **1 tadan** (0,7%) hamda sohaga oid boshqa masalalarda **12 ta** (8,7%) murojaatlar qayd etilgan.

Joriy yilning I-choragi davomida shahar hokimi Z.To'raqulov tomonidan 11 marotaba shahsiy hamda 15 marotaba ommaviy sayyor qabul o'tkazilib, qabullar davomida jami 166 nafar fuqarolarning murojaatlari ro'yxatga olingan. Shundan, 95 nafar (57,2%) fuqaroning murojaatlari ijobiy hal etilgan, 71 nafar (42,8%) fuqaroning murojaatiga qonuniy tushuntirish berilgan.

2024-04-03 10:24:45